

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Xorijiy til va adabiyoti” yuqori kurslar kafedrası o‘qituvchilarining navbatdan tashqari yig‘ilish

B A Y O N N O M A S I № ____

15.04. 2025 yil

Denov tumani

Qatnashdilar: “Xorijiy til va adabiyot” yuqori kurslar kafedrası mudiri

D.Tog‘aymurodov, fan o‘qituvchilari: F.Qurbonova, R.Ro‘ziyeva, R.Xayitova va boshqalar.

K U N T A R T I B I:

Ingliz tili fani o‘qituvchisi G.Xolmurotovaning “True and False” mavzusidagi ochiq dars muhokamasi.

Eshitildi:

Yig‘ilishni “Xorijiy til va adabiyoti” yuqori kurslar kafedrası mudiri D.Tog‘aymurodov kirish so‘zi bilan ochdi va bugungi yig‘ilishda ingliz tili fani o‘qituvchisi G.Xolmurotovaning 2025yil 15- apreldagi Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 312-guruhida o‘tkazilgan “True and False” mavzusidagi ochiq dars mashg‘uloti muhokama qilinishini ta’kidlab o‘tdi. U o‘z so‘zida ochiq dars mashg‘uloti mavzusi to‘g‘ri tanlanganligini, dars reja asosida o‘tilganligini aytib o‘tdi.

Shuningdek, ingliz tili fani o‘qituvchisi G.Xolmurotovaning ochiq darsda yo‘l qo‘ygan ayrim kamchiliklari ta’kidlab o‘tildi, amaliy mashg‘ulot darsiga o‘z munosabatini bildirib, quyidagilarni bayon qildi: Dars jarayoni to‘g‘ri tashkil qilinganligi, dars davomida, ya’ni “Individual, group work” dan darsning asosiy qismida foylanish muhim ahamiyatga ega ekanligini ikki guruh a’naviy emas balkim interaktiv metodlardan foydalangan holda darsni tashkil etish mumkin ekanligi aytiladi. Mavzuga doir taqdimotdan, video materiallardan, mustahkamlovchi savollardan, tarqatma materiallardan, ko‘rgazmali qurollardan, vaqtdan unumli foydalanganligini ta’kidlab o‘tdi.

Shundan keyin, ingliz tili fani o‘qituvchisi D.Rasulova so‘zga chiqib quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi: “Dars interaktiv o‘yinlar asosida tashkil qilindi, o‘tilgan mavzular yuzasidan savol-javoblar tashkil qilindi, vazifa tarqatma materiallar asosida

so‘raldi, savol-javoblar asosida talabalar baholandi. Yangi mavzuni reja asosida talabalarga bayon qilib berdi. O‘qituvchi ya‘ngi mavzuni qo‘shimcha ma‘lumotlar bilan to‘ldirdi. Dars jarayonida turli xil o‘yinlardan foydalanib, talabalarni darsga qiziqтира oldi. Demak, o‘qituvchi darsga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko‘rgan. Shuning uchun bu darsni ijobiy deb baholayman”. Dars yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ta‘lim sifati bosqichiga mos ravishda tashkil etilgan. Ma‘lumotlar tizimli, ilmiy va tushunarli bayon etildi. Darsda yuzaga kelgan ayrim kamchiliklar ta‘kidlandi va bartaraf etishi tushuntirildi.

Dars davomida turli tarqatma materiallardan foydalanildi, ular ilova qilib ko‘rsatiladi.*

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib kafedra yig‘ilishi quyidagicha

QAROR QILADI.

1. Ingliz tili fani o‘qituvchisi G.Xolmurotovaning

“True and False” mavzusidagi ochiq darsi DTS talablariga to‘liq javob beradi deb topilsin.

Yig‘ilish raisi:

T.Tog‘aymurodov

Kotiba

I.Choriyeva



